


Yu. Azizxonova
R. Tolipova

O'ZBEK TILI



Chet elliklar uchun amaliy kurs

494.3
A-32

Yu. Azizxonova, R. Tolipova

O'ZBEK TILI

CHET ELLIKLAR UCHUN
AMALIY KURS

"Til va adabiyot ta'limi"
jurnaliga ilova

Toshkent- 1999

O'zbek alifbosi

Aa	<i>Aa</i>	Ll	<i>Ll</i>	Vv	<i>Vv</i>
Bb	<i>Bb</i>	Mm	<i>Mm</i>	Xx	<i>Xx</i>
Dd	<i>Dd</i>	Nn	<i>Nn</i>	Yy	<i>Yy</i>
Ee	<i>Ee</i>	Oo	<i>Oo</i>	Zz	<i>Zz</i>
Ff	<i>Ff</i>	Pp	<i>Pp</i>	O'o'	<i>O'o'</i>
Gg	<i>Gg</i>	Qq	<i>Qq</i>	G'g'	<i>G'g'</i>
Hh	<i>Hh</i>	Rr	<i>Rr</i>	Sh sh	<i>Sh sh</i>
Ii	<i>Ii</i>	Ss	<i>Ss</i>	Ch ch	<i>Ch ch</i>
Jj	<i>Jj</i>	Tt	<i>Tt</i>	Ng ng	<i>Ng ng</i>
Kk	<i>Kk</i>	Uu	<i>Uu</i>		



KIRISH

O'zbek tilining ushbu amaliy kursining ilmiy asosi hozirgi kunda ikkinchi til o'qitish metodikasining eng samarali yo'nalishi hisoblangan kommunikativ tamoyildir.

O'zbek tilini ona tili sifatida o'qitishdan farqli o'laroq, ushbu kursning maqsadi o'quvchilarga o'zbek tili grammatikasi va leksikasi bo'yicha faqat lisoniy bilimlar berish emas, balki ularga bunday bilim asosida o'zbek tilini muloqot darajasida o'rgatishdir.

Boshqacha qilib aytganda, ushbu darslikning maqsadi o'quvchilarda nutqiy ko'nikma va malakalar hosil qilish.

Shu maqsadda boshlang'ich bosqichda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

a) o'quvchilarda birinchi navbatda ijtimoiy-maishiy va qisman ijtimoiy-madaniy sohalar bo'yicha nutqiy ko'nikma hosil qilish;

b) "Tanishish", "Transportda", "Do'konda", "Shifoxonada", "Mening oilam", "Mening do'stim", "Kun tartibim" kabi aniq mavzular bo'yicha muloqotga o'rgatish;

d) "Salomlashish (xayrlashish)", "Harakat vaqti, maqsadi, sababi" kabi mavzular bo'yicha muloqotga o'rgatish grammatik tuzilma, leksik birlik va birikmalarni o'rgatish asosida amalga oshadi.

Ushbu kursni o'qitishda o'quv materiallari bo'yicha o'quvchilar hayoti bilan bog'liq topshiriqlar berilgan ("Do'stlaringizdan so'rang, ...", "... haqida o'z fikringizni ayting" va hokazo). O'quvchilarga mustaqil ishlashni o'rgatish ("Qiyoslang", ("Yangi so'zlar ma'nosini lug'atdan aniqlang"...); o'z bilimlarini o'zlari nazorat qilib, baholash ("O'zingizni tekshirib ko'ring", "Javobingizni baholang"); turli nutqiy vaziyatlar bo'yicha materiallardan hayotda foydalanishni o'rgatish ko'zda tutilgan.

Har bir dars hajmi leksik-grammatik mavzularning xususiyatiga qarab berilgan. Unga sarflanadigan vaqt o'qitish sharoiti, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi, o'quvchilarning imkoniyatiga qarab belgilanadi.

Har bir darsda avval shu darsda o'zlashtiriladigan so'z va so'z

birikmalarining talaffuzi o'rgatiladi. Bular to'g'ri talaffuz qilish, o'qish va yozish bo'yicha o'quvchilarda ko'nikma hosil qilishga qaratilgan.

So'ngra darsda qo'yilgan kommunikativ vazifa mavzu sifatida beriladi (masalan, "Iltimos qilish", "Maslahat yoki buyruq berish", "Harakat vaqtini ifodalash"). Mazkur vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan leksik-grammatik material nutqiy namunalar orqali beriladi, masalan:

kitobni

Iltimos, jurnalni ber(ing)
daftarni ol(ing).

Shundan so'ng ushbu materialni o'quvchilar nutqiga singdirish uchun quyidagi topshiriqli mashqlar beriladi:

- namunaviy gap va mikromatn asosida mazkur leksik-grammatik shakldagi so'z va so'z birikmalarini kuzatish;
- ularning ma'nosi va grammatik tarkibini o'rgatish;
- ularni nutqqa singdirish;
- ularni og'zaki va yozma nutqda mustaqil qo'llash.

Darsda yangi leksik-grammatik material berilishi bilan birga avval o'tilgan material ham qaytariladi.

O'quvchilar e'tiborini o'quv materialiga qaratish uchun barcha darslarda bir xil topshiriqlar beriladi.

Amaliy kursning yettinchi, o'n to'rtinchi va yigirmanchi darslari umumlashtiruvchi va qaytarish darslaridir. Ularda olingan bilimlarning grammatik asosi ko'rsatilib, o'tilgan mavzular yuzasidan muloqot qilinadi, o'quvchilarning ko'nikma va malakalari tizimi ko'rsatiladi, o'zlashganlik darajasi nazorat qilinadi.

Ushbu darslikda asos qilib ma'no ifodalash vazifasi olinadi va ma'noni ifodalash vositalari ko'rsatiladi. Masalan:

"Predmetni ko'rsatish" - "Bu daftar, bu kitob".

"Predmet haqida so'rash" - "Bu nima?"

"Kishilarni tanishtirish" - "Bu mening opam, bu ukam".

Ushbu kursda o'qitish kommunikatsiya jarayonini

gapirayotgan yoki yozayotgan kishini ma'lumot beruvchi sifatida (gapirish- yozish), tinglayotgan yoki o'qiyotgan kishini esa bu ma'lumotni qabul qiluvchi (tinglab tushunish va o'qish), uni o'zlashtirib oluvchi sifatida tushunishga asoslangan.

Darsdikda o'quvchilarning nutqiy faoliyati nutqiy ko'nikma va malakalarni shakllantiruvchi kommunikativ mashqlar vositasida amalga oshiriladi. Mashqlarda nokommunikativ topshiriqlar emas, balki "So'rab biling, so'rang, xabar bering, qandayligini ayting" kabi kommunikativ topshiriqlar aks etgan.

Lisoniy materiallarni tanlashda mualliflar ana shu mavzu va vaziyatlar doirasini hisobga olganlar. O'zbek tilining leksik-grammatik va uslubiy imkoniyatlari boyligini inobatga olib, mualliflar ma'lum darajada cheklangan va boshlang'ich bosqich uchun zarur bo'lgan materiallarnigina tanlaganlar.

O'quvchilar o'zbek tilining o'ziga xos jihatlarini anglashlari uchun har bir darsda bajarilayotgan topshiriqlarning maqsadi aniq belgilangan. Bu esa til o'rganishga ongli munosabatni ta'minlaydi, o'quvchilarda tilni o'rganishga ishtiyoq o'yg'otadi.

Ushbu darslikda kommunikativ metodikaning asosiy tamoyillaridan biri- tili o'rganilayotgan xalqning madaniyati hisobga olindi. Shunga ko'ra darslikning "Til va madaniyat", "Nutq odobi" qismlarida o'zbek xalqining ba'zi urf-odat va an'analari haqida ma'lumot beriladi, o'zbek maqollaridan namunalar keltiriladi.

Darslik mashg'ulotlarning o'qituvchi tomonidan boshqarib borilishiga mo'ljallangan.

1-DARS

1-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

<u>a</u>	<u>o</u>	<u>u</u>	<u>o'</u>	Yozing.
ana	xona	u	o'quvchi	_____
mana	chiroq	ular	o'qituvchi	_____
taxta	salom	bu	bo'r	_____
deraza	devor	shu	xo'p	_____
talaba	kitob			_____

<u>i</u>	<u>k</u>	<u>q</u>	<u>v</u>	<u>l</u>
eshik	kim	qalam	va	latta
kim	maktab	o'qituvchi	devor	lug'at
biz	darslik	o'quvchi	univyersitet	qalam
siz	ruchka	chiroq		
nima	kitob			

2-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

latta, maktab, taxta, daftar;
o'quvchi, o'qituvchi;
sinf, shift;
assalom, darslik.

Yozing.

3-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

Yozing

Bu kim? Bu nima?
Bu o'quvchi. Bu o'qituvchi. Bu Anvar.
Bu Lola. Bu Anvar Validov.
Bu men. Bu sen. Bu u, bu biz,
bu siz. Bu sizlar. Bu qalam.

Bu darslik. Bu lug'at. Bu daftar.
Bu maktab. Bu sinf. Bu eshik.
Bu deraza. Mana, ruchka va qalam.
Mana, darslik va daftar. Mana, kitob
va lug'at. Bu yyerda taxta, latta va bo'r.

4-mashq. Tinglang, o'qing, qaytaring.

– Assalomu alaykum! – Xayr. – Omon bo'ling!
– Va alaykum assalom! – Xo'p, xayr. – Ko'rishguncha xayr.

5-mashq. Diktant yozing.

Bu o'quvchi. Bu o'qituvchi. Bu maktab. Bu sinf. Bu deraza.
Bu taxta. Bu latta. Bu bo'r. Bu kitob. Bu lug'at. Bu eshik.

TANISHTIRISH. BIROR NARSANI KO'RSATISH

Bu- o'qituvchi. Bu- maktab.

ESLAB QOLING!

kim? nima?
o'quvchi, talaba, o'qituvchi sinf, deraza, eshik, shift.

Bu Anvar, Lola Bu devor, chiroq, qalam,
kitob, lug'at, darslik.

Mana bu Anvar Validov Mana bu daftar, taxta,
men, biz; u, ular xarita, latta
sen (siz), sizlar

6-mashq. Xonadagi narsalarning nomini ayting.

7-mashq. O'rtoqlaringizni tanishtiring.

8-mashq. O'zbekcha gapirib, ko'rsating: men, sen,
u, biz, siz, ular.

9-mashq. a) Matnni o'qing.

SINF

Bu- sinf. Mana, eshik. Mana, deraza. Bu yyerda stol va
stul. U yerda taxta, bo'r va latta. Bu daftar, darslik va ruchka.
Mana bu kitob va lug'at.

Bu o'quvchi. Bu o'qituvchi.

b) O'rtoqlaringizni tanishtiring.

d) Xonangizda nimalar bor, aytib bering.

e) Aytganlaringizni yozing.

QIZIQTIRGAN KISHI, NARSA HAQIDA SO'RAB BILISH VA SO'ZLAB BERISH

Bu kim?


Bu Anvar.

Bu Lola. Bu Anvar Validov.

Bu nima?

Bu maktab.

10-mashq. Rasmdagi narsalarning nomini ayting.



11-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- Anvar, bu kim?

- Lola, bu kim?

- Bu o'qituvchi.

- Bu o'g'il bola, bu qiz bola.



12-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- Anvar, bu nima? -- Nargiza, bu nima?
-- Bu maktab. -- Bu daftar.
-- Lola, bu kim?
-- Bu Anvar Validovich

- b) Atrofingizdagi narsalarning nomini so'rab biling.
d) Bergan savollaringiz va olgan javoblaringizni yozing.

MUOMALA ODOBI

Salomlashish:

- Assalomu alaykum!
-- Va alaykum assalom!

Xayrlashish:

- Xayr.
-- Xo'p, xayr
-- Omon bo'ling!
-- Ko'rishguncha xayr.

2-DARS

1-- mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

- chi o'quvchi, o'qituvchi, bu-chi
-mi Murodmi?, Anvarmi?, Maktabmi?
g' lug'at
l Lola

2-mashq. Tinglang va taqqoslang, o'qing va takrorlang.

- | | | | |
|-----|----------|-----|------------------|
| ss | assalom | e | eshik, esa, emas |
| tt | latta | h | ham, ha |
| tch | sportchi | chi | chiroq |
| mm | qalammi? | | |

3-mashq. Tinglang, qo'shib o'qing, takrorlang.

Bu kim? Bu nima?
Bu-chi? Bu ham. Bu esa.
Bu Murodmi? Bu Murodmi yoki Anvarmi? Bu qalammi?
Bu lugatmi? Bu daftar yoki darslikmi?
Ha, bu-- Murod. Yo'q, bu-- Mansur. Yo'q, bu Murod emas,
Mansur. Bu-- eshik, bu esa-- deraza.

4-mashq. Diktant yozing.

Kim bu? Bu-- Murod. Bu-chi? Bu-- Anvar. Bu-- Anvarmi?
-- Yo'q, bu Anvar emas, Mansur.
Bu darslikmi? Yo'q, bu darslik emas, lugat.

QIZIQTIRGAN KISHI KIM (NARSA NIMA) EKANLIGINI ANIQLASH

- | | |
|-----------------------|----------------------|
| - Kim bu? - Bu-CHI? | - Bu nima? -BU-CHI? |
| - Bu o'quvchi- Bu HAM | - Bu qalam. - Bu HAM |
| o'quvchi. | qalam. |
| | - Bu ESA kitob. |

ESLAB QOLING!

<i>Sportchi</i>	<i>katta</i>	<i>universitet</i>	<i>litsey</i>
<i>direktor</i>	<i>teatr</i>	<i>kollej</i>	<i>institut</i>

5-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|------------------|--------------------|
| - Anvar, bu kim? | - Lola, kim bu? |
| - Bu - talaba. | - Bu - o'qituvchi. |
| - Bu-chi? | - Bu-chi? |
| - Bu ham talaba. | Bu ham o'qituvchi. |

b) Sizni qiziqitirgan kishilar kim, so'rab biling.

6-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|------------------|-------------------|
| - Lola, bu nima? | - Anvar, bu nima? |
| - Bu teatr. | - Bu daftar. |
| - Bu-chi? | - Bu-chi? |
| - Bu esa muzey. | - Bu esa kitob. |

b) Oldingizdagi narsa nima, so'rab biling.

SO'RAB BILISH

- | | |
|-----------------|-----------------|
| - Bu MurodMI? | - Bu qalamMI? |
| - Ha, bu Murod. | - Ha, bu qalam. |

7-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|-------------------------|------------------------|
| - Anvar, bu direktormi? | - Lola, bu o'quvchimi? |
| - Ha, bu direktor. | - Ha, bu o'quvchi. |

b) Oldingizdagi kishi kim, aniqlang.

8-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|-----------------------|---------------------|
| - Anvar, bu daftarmi? | - Lola, bu teatrmi? |
| - Ha, bu daftar. | - Ha, bu teatr. |

b) Oldingizdagi narsalar nimaligini aniqlang.

ANIQLASH

- | | |
|--------------------------------|--------------------|
| - Bu Anvarmi? | - Bu Lolami? |
| - YO'Q, bu Anvar EMAS, Mansur. | - YO'Q, bu Nigora. |

9-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|------------------------------------|---------------------------------|
| - Anvar, bu o'qituvchimi? | - Lola, bu maktabmi? |
| - Yo'q, bu o'qituvchi emas talaba. | - Yo'q, bu maktab emas, kollej. |
| - Nilufar, bu o'quvchimi? | - Mansur, bu maktabmi? |
| - Yo'q, bu - talaba. | - Yo'q, bu - universitet. |

10-mashq. a) Savollarga avval ijobiy, so'ng salbiy javob bering.

Bu Nigorami? Bu o'quvchimi? Bu sportchimi?
Bu muzeymi? Bu teatrmi? Bu lug'atmi?

11-mashq. a) Oldingizdagi kishi kim, aniqlang.

Namuna: - Bu Anvarmi? - Bu Nigorami?
- Ha, bu Anvar. - Yo'q, Nigora emas, Lola.

b) Oldingizdagi narsa nima, aniqlang.



Namuna: - Bu daftarmi? - Bu maktabmi?
- Ha, bu daftar. - Yo'q, bu kollej.

12-mashq. a) Sizni qiziqtirgan kishilar kim, aniqlang.

Namuna: - Bu kim? - Bu-chi?
- Bu o'quvchi. - Bu esa talaba.

b) Rasmda nima tasvirlanganini aniqlang.

Namuna: - Bu nima? - Bu-chi?
- Bu maktab. - Bu esa muzey



ANIQLASH

-Bu Anvarmi YoKI Mansurmi?	- Bu Lolami YoKI Nigorami?
- Bu - Anvar.	- Bu Lola, bu esa Nigora.

13-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- Bu direktormi yoki o'qituvchimi?	- Bu o'qituvchimi yoki talabami?
- Bu - direktor.	- Bu - talaba.
- Bu Anvarmi yoki Mansurmi?	- Bu Lolami yoki Nigorami?
- Bu Anvar, bu esa Mansur.	- Bu Lola, bu esa Nigora.

b) Oldingizdagi kishining kimligini aniqlang.

14-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- Bu muzeymi yoki institutmi?	- Bu kitobmi yoki daftarmi?
- Bu institut.	- Bu kitob.
- Bu muzeymi yoki teatrmi?	- Bu qalammi yoki ruchkami?
- Bu muzey, bu esa teatr.	- Bu qalam, bu esa ruchka.

b) Oldingizdagi narsalar nima, aniqlang.

15-mashq. a) Sizni qiziqtirgan kishi kim (narsalar nima), aniqlang.

Namuna: Bu kitobmi? Bu kitobmi yoki daftarmi?

b) Shunga o'xshash savollarga avval ijobiy, so'ngra salbiy javob bering.

d) Savol va javoblaringizni yozing.

16-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

– *Anvar, bu nima?*

– Bu xona. Bu yyerda stol. Mana bu yerda chiroq. Mana bu taxta. Bu daftar, bu esa kitob. Mana bu lug'at.

– Bu-chi?

– Bu ham kitob.

– Bu darslikmi?

– Ha, bu darslik.

– Anvar, kim bu, o'quvchimi?

– Yo'q, bu o'quvchi emas, bu– o'qituvchi.

– Bu Lolami yoki Nigorami?

– Bu Lola, bu esa Nigora.

b) O'quv xonangiz haqida gapirib bering, do'stlaringizni tanishtiring. Hamsuhbatlaringizdan oldidagi kishi kim (narsa nima), aniqlang.

MUOMALA ODOBI

TASHAKKUR BILDIRISH:

– *Rahmat!* – *Katta rahmat!*

– *Marhamat.*

3-DARS

1-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

<u>bi</u>	<u>gi</u>	<u>ki</u>	<u>mi</u>
kitobi	darsligi	meniki	kitobmi
kitobim	darsligim	sizniki	siznikimi
kitobimiz	darsligimiz	uniki	menikimi
<u>ni</u>	<u>ri</u>	<u>si</u>	<u>ti</u>
nima	daftari	xonasi	do'sti
seniki	daftarim	derazasi	do'stim
bizniki	daftarimiz	ukasi	do'stimiz

2-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

<u>-niki</u>	<u>-ng</u>	<u>-ning</u>	<u>-ngiz</u>
meniki	do'sting	mening	do'stingiz
seniki	kitobing	sening	kitobingiz
sizniki	derazang	sizning	xaritangiz
uniki	o'rtog'ing	uning	ukangiz
bizniki	singling	bizning	ismingiz
sizlarniki	oting	sizlarning	otingiz
ularniki	xonang	ularning	maktabingiz

3-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

Yozing.

Do'st, o'rtoq; juda xursandman, men ham; _____
 daryo, poytaxt; kechirasiz, ayting-chi, _____
 sizniki-chi; darslik darsligi; _____
 o'rtoq o'rtog'i. _____

4-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

Mening kitobim, sizning xonangiz, o'quvchining daftari.
Sening akang, bizning o'qituvchimiz, ularning do'sti.
Qalam meniki, darslik Farhodniki, daftar Sayyoraniki.

5-mashq. Diktant yozing.

Mening ismim, sening opang, uning dugonasi, bizning og'aynimiz; daftar meniki, qalam uniki, darslik Shuhratniki, lug'at Anvarniki.

Kitob siznikimi? Sizning qalamingizmi? Uning ismi nima?

ESLAB QOLING!

Ota (dada), ona (oyi), aka, uka; opa, singil; do'st, dugona, xona, xarita, ism

QARASHLILIK MA'NOSINI IFODALASH

kimNING?	kimNIKI?
- kimNING do'sti?	- Kitob kimNIKI?
- MeNING do'stIM.	- (Kitob) meNIKI.

ESLAB QOLING!

kimNING	kimI?	nimaSI?
meNING	otaM	lugatIM
seNING	otaNG	lugatING
SizNING	otaNGIZ	lug'atINGIZ
uNING	otaSI	lugatI

bizNING	otaMIZ	lugatiMIZ
sizlarNING	otaNGIZ	lugatINGIZ
ularNING	otaLARI	lugatI

NIMA?	kimNIKI?
	meNIKI
darslik	seNIKI
	SizNIKI
	uNIKI
	ularNIKI
	ularNIKI

6-mashq. Dialoglarni o'qing. Mening va sening so'zlarining ishlatilishiga e'tibor bering.

- | | |
|------------------------|---------------------|
| - Kimning opasi? | - Kimning ukasi? |
| - Mening opam. | - Mening ukam. |
| - Bu kimning xaritasi? | - Bu kitob kimniki? |
| - Bu mening xaritam. | - Bu kitob meniki. |

7-mashq. a) Berilgan so'zlar vositasida qarindoshlik va qarashlilik haqida savollar bering.

Namuna: *Ona.* - Kimning onasi?
Qalam. - Kimning qalami?

Ota, aka, uka, do'st, opa, Daftar, kitob, lug'at, xona,
dugona, singil. sinf, xarita.

8-mashq. a) Kim kimning qarindoshligi haqida savol bering.

Namuna: *Bu kimning otasi?*

b) Sizni qiziqtirgan narsalar kimga qarashli ekanligi haqida savol bering.

Namuna: *Bu kimning lug'ati?* *Bu lug'at kimniki?*

9-mashq Savollarga javob bering. Javobda mening va meniki so'zlarini qo'llang.

Namuna: *Bu kimning xonasi?* – *Bu mening xonam.*
– *Bu xona meniki.*

Bu kimning darsligi? Bu kimning daftari?

Bu kimning xaritasi? Bu kimning lug'ati? Bu kimning qalami?

10-mashq. Xonangizda qanday narsalar bor va ular kimga tegishli, so'rang.

Namuna: -- *Bu nima?* – *Bu kimning daftari? (Bu daftar kimniki?)*
-- *Bu daftar.* – *Bu mening daftarim. (Bu daftar meniki.)*

ESLAB QOLING!

<i>shahar</i>	<i>daryo</i>	<i>O'zbekiston(ning) xaritasi</i>
<i>ona shahrim</i>	<i>dengiz</i>	<i>O'zbekiston(ning) poytaxti</i>
<i>poytaxt</i>	<i>tog'</i>	

11-mashq. a) Matnni o'qing.

O'ZBEKISTON XARITASI
O'zbekiston bizning respublikamiz. Mana, bu Toshkent. Toshkent– O'zbekistonning poytaxti. Bu esa– mening ona shahrim Farg'ona. Mana bu– Sirdaryo. Bu esa– Qoraqalpog'iston va Orol dengizi. Bu Qora qum va Qizil qum cho'llari.

b) Xaritadan poytaxt, shaharlar, sizning shahringiz,

daryo va tog'larni ko'rsatib, ular haqida gapirib bering.

TEGISHLILIKNI ANIQLASH

– Bu daftar SizNIKIMI?
– Ha, meniki.
– Bu kitob SeNIKIMI?
– Yo'q, bu kitob meniki emas, Anvarniki.
(Bu Anvarning kitobi.)

12-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

– Anvar, bu sening qalamingmi? – Bu Anvarning tug'ilgan shahrimi?
– Ha, meniki. – Ha, uning tug'ilgan shahri.
– Lola, bu sening xaritammi? – Bu Mansurning xaritasimi.
– Ha, mening xaritam. – Ha, Mansurning xaritasi.
– Nigora, bu sizning shahringizmi? – Bu Layloning opasimi?
– Ha, bizning shahrimiz. – Ha, Layloning opasi.

b) Atrofdagi narsalar kimga tegishliligini aniqlang.

13-mashq. Xonangizdagi narsalar kimga tegishli, aniqlang.

14-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

– Bu Anvarning do'stimi? – Bu sizning lug'atingizmi?
– Yo'q, Mansurning do'sti. – Do'stimning lug'ati.
(Yo'q, do'stimniki).
– Bu Anvarning do'stimi?
– Yo'q, Mansurning akasi.

b) Savollarga salbiy javob bering.

Bu sizning singlingizmi? Bu sizning akangizmi? Bu sizning do'stingizmi? Bu sizning dugonangizmi? Bu Nargizaning opasimi? Bu Anvarning ukasimi?

Bu sizning lug'atingizmi? Bu uning kitobimi? Bu bizning xonamizmi? Bu kitob Nigoranikimi? Bu Mansurning qalamimi? Bu qalam Mansurnikimi?

TANISHISH. ISMINI AYTISH.

- | |
|---|
| - Sizning ISMINGIZ (OTINGIZ) NIMA? |
| - Mening ISMIM (OTIM) Anvar. SIZNIKI-Chi? |
| - Mansur. |

ESLAB QOLING!

- *Sening isming (oting) nima?*
- *Sizning ismingiz (otingiz) nima?*
- *Mening ismim (otim) Nasiba.*
- *Juda xursandman.*
- *Men ham.*

15-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|-------------------------------------|-----------------------|
| - Sizning ismingiz nima? | - Lola, bu kim? |
| - Mening ismim Nigora. Sizniki-chi? | - Menejer. |
| - Lola. | - Ularning ismi nima? |
| | - Anvar Mahmudovich. |
| - Anvar, bu kim? | - Mansur, bu kim? |
| - Bu mening ukam. | - Mening do'stim. |
| - Uning oti nima? | - Uning oti nima? |
| - Mansur. | - Anvar. |

b) Sizni qiziqitrgan kishilarning ismlarini so'rang.

d) Tanishlaringizdan sizni qiziqitrgan kishilar ismini so'rang.

16-mashq. a) O'zingizni tanishtiring.

Namuna: *Mening ismim Anvar.*

b) Boshqa kishini tanishtiring.

Namuna: *Bu mening do'stim. Uning oti Shuhrat.*

KISHILARNING ISMINI ANIQLASH

- | | |
|------------------------------|------------------------------|
| - Sizning ismingiz NigoraMI? | - Sizning otingiz MansurMI? |
| - Ha, Nigora. | - Yo'q, mening otim Shuhrat. |

16-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|-------------------------------|-------------------------------|
| - Sizning otingiz Lolami? | - Sizning ismingiz Shuhratmi? |
| - Yo'q, singlimning oti Lola. | - Ha, Shuhrat. Sizniki-chi? |
| - Sizniki-chi? | - Mansur. |
| - Nazira. | |

b) Sizni qiziqitrgan kishilarning ismlarini aniqlang.

18-mashq. O'zingizni tanishtiring. Oila a'zolarinigiz, o'qituvchingiz, do'stlaringizni tanishtiring, ularning ismlarini ayting.

19-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- Mening ismim Anvar. Sizniki-chi? – Mening otim Nigora.
Sizniki-chi?
– Lola. – Meniki Hilola.
– Xursandman. – Juda xursandman.
– Men ham. – Men ham.

b) Xonadagi kishilar bilan tanishing.

TIL VA MADANIYAT

1. *Ulug'BEK* AzizXON KomilJON
DilshodBEK AkbarXON HakimJON
OzodaXON OltinOY
FaridaXON BarchinOY

MUOMALA ODOBI TANISH VA NOTANISH KISHILARGA MUROJAAT ETISH

2. – Ayting-chi, sizning ismingiz Murodbek emasmi?
– Kechirasiz, siz Nasiba emasmisiz?
– Iltimos, ayting-chi,...
3. O'zbek xalq maqollarini eslab qoling, ularning ona tilingizdagi muqobilini toping.
- Tili shirin odamning do'stlari ko'p bo'ladi.
Kishining so'zi – aqlning tarozisidir.

4-DARS

1-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

<u>x</u>	<u>h</u>	<u>u</u>	<u>o'</u>
xursand	guruh	ruxsat	ro'yxat
xizmatchi	dehqon	rus	o'zbek
<u>k</u>	<u>q</u>	<u>ss</u>	<u>ll</u>
shifokor	qabulxona	emassan	millat
meniki	o'rtoq	emassiz	

<u>k</u>	– <u>g</u>	<u>g</u>	– <u>q</u>
darslik	– darsligi	yigit	– qiz

2-mashq. Tinglang, qo'shib o'qing, takrorlang.

Bu kim? Bu nima? U kim? Siz kimsiz?
Bu esa... Onamlar esa... Ukam esa...
Do'stim ham ... O'rtog'im ham ...
U o'zbek. U rus. U ingliz. U o'qituvchi. U shifokor.

3-mashq. Tinglang, o'qing, takrorlang.

dehqon	dehqonmi	dehqonmisiz	dehqon emassiz
ishchi	ishchimi	ishchimisiz	ishchi emassiz
xizmatchi	xizmatchimi	xizmatchimisiz	xizmatchi emassiz
shifokor	shifokormi	shifokormisiz	shifokor emassiz
quruvchi	quruvchimi	quruvchimisiz	quruvchi emassiz

4-mashq Diktant yozing.

Ismingiz nima? Bu mening dugonam. Qalam siznikimi? Siz dehqonmisiz?
Men ishchiman. Shifokor emasman. Siz ishchi emassiz. Otamlar

shifokor emaslar.

5-mashq. a) Oila a'zolaringiz va do'stlaringiz fotosuratlarini ko'rsatib, ular kimligini aytib bering.

b) Fotosuratlarda kimlar tasvirlangan, aniqlang.

- | | |
|-------------------------|-----------------------------------|
| <i>Namuna – Bu kim?</i> | <i>– Bu sizning akangizmi?</i> |
| <i>– Bu otam.</i> | <i>– Yo'q, bu mening do'stim.</i> |
| <i>– Bu sizmi?</i> | <i>– Bu kim?</i> |
| <i>– Ha, men.</i> | <i>– Bu ham mening do'stim.</i> |

6-mashq. a) Dialoglarni o'qing.

- | | |
|---------------------------------------|----------------------------------|
| <i>– Bu sening xaritagmi?</i> | <i>– Bu sening lug'atingmi?</i> |
| <i>– Ha, meniki.</i> | <i>– Yo'q, meniki emas.</i> |
| <i>– Bu uning kitobimi?</i> | <i>– Bu Anvarning kitobimi?</i> |
| <i>– Ha, uniki.</i> | <i>– Yo'q, uniki emas.</i> |
| <i>– Bu sizning xonangizmi?</i> | <i>– Bu ukangning maktabimi?</i> |
| <i>– Ha, bizniki.</i> | <i>– Yo'q, uniki emas.</i> |
| <i>– Bu sizning o'qituvchingizmi?</i> | <i>– Bu sening opangmi?</i> |
| <i>– Ha, bizning o'qituvchimiz.</i> | <i>– Yo'q, mening opam emas.</i> |

b) Sizni qiziqtirgan narsalar kimniki ekanligini aniqlang.

ESLAB QOLING!

guruh, bola, yigit, qiz.

7-mashq. a) Matnni o'qing.

BIZNING GURUH

Mening ismim Shuhrat. Bu yigit mening do'stim. Uning ismi Mansur. Bu qiz esa mening dugonam. Uning ismi Lola. Bu bizning o'qituvchimiz. Ularning ismlari Anvar Maxmudovich.

b) Savollarga javob bering:

Ismingiz nima? Bu kimning xonasi? Do'stingiz (dugonangiz) kim?

Uning ismi nima? O'qituvchingiz kim? Ularning ismlari nima?

8-mashq. a) O'zingizni tanishtiring. Guruhingiz haqida gapirib bering.

b) Gaplaringizni yozing.

KISHILARNING KASBI, IJTIMOIIY AHVOLI, NIMA BILAN SHUG'ULLANISHI

- | | |
|-------------------|--------------------|
| <i>– Bu kim?</i> | <i>– U KIM?</i> |
| <i>– Doniyor.</i> | <i>– U IShChI?</i> |

ESLAB QOLING!

KASBLAR

Ishchi, xizmatchi, dehqon, shifokor, quruvchi, uchuvchi, oshpaz, muhandis, haydovchi, artist.

Mualliflar
Azizxonova Yuna Jalolovna
Tolipova Ra'no To'raxonovna

Mas'ul muharrir
professor Ergash Umarov

Taqrizchilar
prof. Safo Matchonov,
dos. Zuhriddin Isomiddinov

Босишга 2000 й. 7.02. да рухсат этилди. Бичими 60x84 1/16. Офсет
қоғози. Жами 1000 нусха. 5-сон буюртма.

"OFSET-PRINT" босмахонаси.
Тошкент, Қирққиз кўчаси, 10-уй.